

**Zebiniso Urazaliyeva**

*Zomin tumani Abu Ali ibn Sino nomidagi*

*jamoat salomatligi texnikumi*

*Yetakchi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ijtimoiy hayotda o'rni tabora yuksalib borayotgan oddiy va kamtarin uztozlarimizni e'zozlagan holda jamiyatimizdagi ayrim shu soha vakillarining shahsiy namuna bo'la olmayotganligi, qolaversa, muallim jamiyatning kuzgusi ekanligini anglatgan holda o'zimning shaxsiy xulosalarim bilan o'rtoqlashganman.

**Kalit so'zlar:** G'oyaviy fluktuatsiya, mutanosiblik, nomutanosiblik, munofiqlik, shaxsiy ibrat, ibratli kontent.

### **Ilmiga amal qilmagan olim – bolsiz asalariga o'xshaydi**

**(Sh.Sa'diy)**

So'zimni Imom G'azzoliyning "Ilmiga amal qilmagan olim boshqani kiyintirgan holda o'zi yalang'och qolgan ignaga o'xshaydi"- degan chuqur ildizga ega so'zlari bilan boshlasam, sababi bugungi internet olami, ijtimoiy tarmoqdagi turli platformalar siz-u bizning hayotimizga nafaqat kirib, qolavesa mustahkam o'rin egallab olgani ham ayni haqiqat. Shunday bir sharoitda o'z qarashlariga sodiq, g'oyaviy fluktuatsiyaga berilmasdan, sobitqadam bo'lishlik hammamizdan kuchli aql-zakovat va mustahkam irodani talab qiladi.

Odamda zo'r ilm g'oya, tashabbus bo'lishi mumkun, olim bo'lsa-yu omil (amal qiluvchi) bo'lmasa, bu foydasiz. Beamallikdan shaxs, oila, jamiyat, millat qolaversa yurtga eng ko'p ziyon yetadi.

Hamma sohada amal zarur. Masalan, maktabda dars berayotgan oddiy o'qituvchining ta'lim va tarbiyasi uning gap-so'zlaridan namunali ko'rinsa-yu, aslida bu shunchaki go'zal surat yoki chiroyli va'zxonlik bo'lib chiqsa, yoki deylik tarbiya

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

fanidan dars beruvchi ustoz dars davomida chuqur mulohazaga chorlovchi hayotiy misollar bilan tarbiyaning asli mohiyati haqida voizlik qilsa-yu, o'zining odobi, etikasi ijtimioiy normalarga javob bermasa, yoki uni o'zi uchun mukammal tarbiya egasi deb bilgan o'quvchi ustozining aytganiga o'zi amal qilmaganini ko'rsa-chi, bu holat nima deyiladi? Menimcha, bu - Nomutonosiblik!

Muqaddas dinimizda ham so'zi bilan ishi bir-biriga to‘g‘ri kelmasligini ifodalovchi salbiy axloqiy sifat borki, uni Munofiqlik deb atashadi. Shundan asrasin! Xalqimizda yana bir oddiy maqol bor “Yaxshi bo’lish asta-asta, yomon bo’lish bir pasda” deyiladi. Hamma sohada shaxsiy namunaga erishmoqchi bo’lganlar yuqoridagi oddiy jumlalarni o’ziga shior qilib olsa ham maqsadga muvofiq bo’ladi. Ma’lumki, hurmat va izzat, o’bro va e’tibor, misqollab yig’ilib, (yig’ilganda ham osh qoshiq emas, choy qoshiq bilan yig’iladi) botmonlab to’kiladi.

-Ha, endi hammamiz ham insonmiz, kim ham xato qilmaydi, “Beayb parvardigor” deya fikr qilgan bo’lsangiz bunga ham javobim bor.

Yozuvchi adibamiz Tursunoy Sodiqova bunga shunday javob beradi: “Murabbiylikni xohlagan, shu kasbga o‘qiganki odam murabbiy bo‘lib qolmaydi. Ustozlikning o‘ziga xos parhezlari, bosib o‘tilmaydigan chegara chiziqlari bordir! Birinchidan, dilingizda ustoz-tarbiyachilikning yozilganu yozilmagan qonun-qoidalariga bo‘ysunaman degan QASAMINGIZ bo‘lsin!” Ha, aynan muallimlikdek sharafli kasbni tanlashdan oldin, uning yukini ko’tara olamanmi, kasb nomiga dog’ tushirib qo’ymasmikanman deb o’zingizga savolningiz bo‘lsin!

Mulohaza o’rnida Shayx Sa’diyning,

Harchand o’qibsan, bilimdonsan,

Agar amal qilmasang, nodonsan.

Jumlalari ham kishini o’yga toldiradi.

-Mening o’zim ham shu kasb ichida yurib tarbiya jihatidan o’quvchi yoshlarimga ibrat bo’la olayapmanmi deb uzoq o’ylanib qolaman. Ko’chada yoki telefon orqali gaplashganda Ustoz deya murojaat qilsa tanam jimirlab ketadi. Shu maqomga munosibmanmi deb o’zimni taftish qilaman.

Nafaqat ta’lim tizimidagi ziyoli ustozlar, ishxonadagi rahbar, uydagи ota-onा,

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

hamma-hammasida qo'l ostidagilarga nisbatan SHAXSIY IBRAT bo'lishi shart. "Insonda hamma narsa go'zal bo'lishi kerak: yuzi ham, kiyimi ham, qalbi ham, fikri ham", - degan edi buyuk yozuvchi Chexov. Bu gaplarda ham MUTONOSIBLIK haqida gap bormoqda aslida...

Ulamolarimiz ham yaxshi ustoz bo'lish uchun uning yettita qoidasi bor deydi. Ana shu qoyidaning to'rtinchisi ham SHAXSIY IBRAT hisoblanar ekan.

Agar siz o'tmishda qanchalik muvaffaqiyatli bo'lgan ekanligingizni bilmoxchi bo'lsangiz, hozirgi holatingizga nazar soling.

Agar siz kelajakda muvaffaqiyatli bo'lmoqchi bo'lsangiz, hozirgi amallaringizga nazar soling. Shu kabi ibratlari kontent ham o'zligimizni anglash uchun motiv bo'la oladi.

Yuqoridagi jami gaplarimni muxtasar qilib aytganda, kamtar, fidoyi o'qituvchi, bag'rikeng ustoz sizning hayot yo'lingiz yosh avlod uchun ibrat maktabi bo'lishi kerak. So'zlarimni o'zimning kichik bir to'rtligim bilan tugatib qo'ysam.

Ich-ichimdan ju'rat bo'lmasa,  
Namunali surat bo'lmasa,  
Toza-tiniq fitrat bo'lmasa,  
Boshqalarga IBRAT bo'lmaymiz...

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

"Guliston Bo'ston" Sa'diy Sheraziy, G'afur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2021

"Murabbiy kim" Tursunoy Sodiqova. (Toshkent islom universiteti) nashriyoti matbaa-ijodiy birlashmasi. Toshkent-2006